

BINOMIAL KONSTRUKSIYA TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI VA ZAMONAVIY
TILSHUNOSLIKDAGI TALQINLARI

Nematullayev Nodirbek Muzaffar o'g'li
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

E-mail: nodirbeknm2704@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21933082>

Annotatsiya. Ushbu tezisda binomial konstruksiya tushunchasining tilshunoslikda shakllanishi hamda uning zamonaviy talqinlari tahlil qilinadi. Turli tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar komponentlarning grammatik va sintaktik munosabati, semantik bog'liqligi, joylashish tartibi, komponentlar tartibining almashuvchanligi va formulaviylik xususiyatlari nuqtayi nazaridan qiyoslanadi. Tahlil natijasida binomial konstruksiyalarni tavsiflashda strukturaviy va semantik munosabatlarni asosiy mezon sifatida belgilovchi, komponentlar tartibining qat'iyligi hamda formulaviylikni esa barcha binomiallar uchun majburiy mezon sifatida belgilamaydigan yondashuvning maqbulligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: *binomial konstruksiya, komponentlar tartibi, sintaktik tenglik, semantik munosabat, almashuvchanlik, komponentlar tartibining qat'iyligi, formulaviylik, korpus tahlili.*

Аннотация. В тезисе рассматриваются становление понятия биномиальной конструкции в лингвистике и его современные интерпретации. Подходы, предложенные различными исследователями, сопоставляются с точки зрения грамматических и синтаксических отношений между компонентами, их семантической связи, порядка расположения, обратимости порядка компонентов и формульности. По результатам анализа обосновывается целесообразность подхода, согласно которому структурные и семантические отношения рассматриваются как основные критерии описания биномиальных конструкций, тогда как необратимость порядка компонентов и формульность не признаются обязательными признаками всех биномиальных конструкций.

Ключевые слова: *биномиальная конструкция, порядок компонентов, синтаксическое равноправие, семантическая связь, обратимость, необратимость, формульность, корпусный анализ.*

Abstract. This thesis examines the development of the concept of binomial constructions in linguistics and its contemporary interpretations. Approaches proposed by different scholars are compared in terms of the grammatical and syntactic relations between components, their semantic relationship, ordering, reversibility of component order, and formulaicity. The analysis substantiates the suitability of an approach that treats structural and semantic relations as the primary criteria for characterizing binomial constructions, while not regarding the irreversibility of component order and formulaicity as obligatory criteria for all binomials.

Keywords: *binomial construction, component order, syntactic equivalence, semantic relation, reversibility, irreversibility, formulaicity, corpus analysis.*

Kirish. Til birliklarining shakllanishi va qo'llanish xususiyatlarini o'rganish tilshunoslikning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ikki komponentning o'zaro grammatik va semantik munosabat asosida birikishi natijasida yuzaga keladigan birliklar til tizimida alohida o'rin tutadi. Ana shunday til birliklari sirasiga binomial konstruksiyalar ham kiradi. Ular turli davrlarda tadqiqotchilar tomonidan strukturaviy, semantik va funksional jihatdan o'rganib kelingan. Binomial konstruksiyalarning tarkibiy tuzilishi, komponentlar o'rtasidagi munosabat hamda ularning joylashish tartibiga doir qarashlarning turlicha ekanligi ushbu tushunchaning ilmiy talqinlarini qiyosiy ko'rib chiqishni talab etadi.

Binomial konstruksiyalarga xos xususiyatlar *binomial* termini keng ilmiy muomalaga kirishidan oldin ham so'z juftliklari doirasida o'rganilgan. Jumladan, E.Leisi 1947-yilda Caxtonning *Eneydos* asari materialida tautologik so'z juftliklarini tadqiq etgan [4.1947]. Biroq binomial konstruksiyalarni alohida lingvistik hodisa sifatida o'rganishda Y.Malkielning 1959-yilda e'lon qilingan *Studies in Irreversible Binomials* nomli tadqiqoti muhim o'rin tutadi.

Y.Malkiel binomialni bir xil grammatik sinfga mansub, sintaktik ierarxiyaning bir xil darajasida joylashgan va odatda muayyan leksik aloqa orqali bog'langan ikki so'z ketma-ketligi sifatida ta'riflaydi [5.1959.B.113]. Ushbu ta'rifda binomial konstruksiyani belgilashda komponentlarning grammatik jihatdan bir xilligi, sintaktik teng mavqei va ular o'rtasidagi leksik bog'lanish asosiy mezon sifatida ko'rsatilgan.

Y.Malkielning qarashlari keyingi tadqiqotlarda turli jihatlardan rivojlantirildi. M.Gustafsson binomial konstruksiyalarni o'rganishda komponentlar tartibi bilan bir qatorda ularning formulaviy xususiyatiga ham e'tibor qaratadi. Tadqiqotchi Malkielning formulaviylik va reversibility (komponentlar tartibining almashuvchanligi)ni binomiallarning ikki alohida xususiyati sifatida ajratishini qayd etadi [2.1976.B.630]. Shuningdek, u o'z materialida binomiallarning ikki xil tartibda qo'llanish holatlarini chastota nuqtayi nazaridan tahlil qiladi.

A. Siyanova-Chanturia, K. Conklin va W. J. B. van Heuven binomiallarni bir xil leksik sinfga mansub ikki mazmunli so'zning bog'lovchi yordamida birikishi hamda mumkin bo'lgan ikki tartibdan birining ikkinchisiga nisbatan ko'proq qo'llanishi bilan tavsiflaydi [7.2011.B.777]. Mazkur yondashuvda komponentlar tartibining qo'llanish chastotasi alohida mezon sifatida namoyon bo'ladi.

J. Kopaczkyk va H. Sauer binomialni bir xil so'z turkumiga mansub, koordinativ munosabat asosida birikkan va o'zaro semantik aloqaga ega ikki til birligidan tashkil topgan konstruksiya sifatida izohlaydi [3.2017.B.3]. Mualliflar irreversibility, ya'ni komponentlar tartibining nisbiy qat'iyligi, hamda formulaviylikni core binomiallar (yadro binomiallar)ning tipik xususiyatlari sifatida e'tirof etadilar. Biroq ular mazkur belgilarni binomial tushunchasining umumiy ta'rifiga majburiy mezon sifatida kiritmaydilar.

Keltirilgan qarashlarni qiyoslash shuni ko'rsatadiki, Malkiel hamda Kopaczkyk va Sauer yondashuvlarida komponentlarning bir xil grammatik sinf yoki so'z turkumiga mansubligi va sintaktik jihatdan teng munosabatda bo'lishi umumiy mezon sifatida namoyon bo'ladi. Bunda Malkiel komponentlar o'rtasidagi leksik aloqani, Kopaczkyk va Sauer esa semantik munosabatni alohida ta'kidlaydi. Siyanova-Chanturia va hammualliflar yondashuvda esa komponentlarning muayyan tartibda ko'proq qo'llanishi ham muhim mezon sifatida qoraladi.

Bizningcha fikrimizcha, binomial konstruksiyalarni kengroq doirada o'rganishda Kopaczkyk va Sauer tomonidan taklif qilingan yondashuv maqbulroqdir. Chunki ushbu ta'rif strukturaviy va semantik munosabatlarni asosiy mezon sifatida saqlagan holda, komponentlar tartibining qat'iyligi yoki formulaviylikni barcha binomial konstruksiyalar uchun majburiy shart qilib qo'ymaydi.

Keyingi tadqiqotlarda binomial konstruksiyalarni o'rganishda korpus ma'lumotlaridan foydalanishga ham alohida e'tibor qaratila boshlandi. S.Mollin ingliz tilidagi binomiallarni korpus asosida tahlil qilib, komponentlar tartibining almashuvchanlik darajasi, komponentlar tartibiga ta'sir qiluvchi lingvistik omillar hamda ushbu xususiyatning tarixiy rivojlanishini o'rganadi [6.2014].

Tadqiqotda komponentlar tartibining almashuvchanligi qat'iy ikkilik xususiyat sifatida emas, balki turli darajada namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan murakkab belgi sifatida qoraladi. Bu yondashuv binomiallarni faqat turg'un va turg'un bo'lmagan guruhlariga ajratish bilan cheklanmay, ularning korpusdagi qo'llanish chastotasi va tartibiy xususiyatlarini ham hisobga olish imkonini beradi.

O'zbek tilshunosligida binomial konstruksiyalarni maxsus tadqiq etishga qaratilgan ishlardan biri Sh.Ermatovning ingliz va o'zbek tillaridagi binomial hosilalarning struktur-semantik, funksional-stilistik va pragmatik jihatlariga bag'ishlangan tadqiqotidir. Unda ingliz va o'zbek tillaridagi binomial hosilalarning struktur-semantik xususiyatlari, funksional-stilistik vazifalari va pragmatik imkoniyatlari qiyosiy asosda tahlil qilinib, ularning o'xshash va farqli jihatlari yoritilgan. Shuningdek, binomial hosilalarning barqarorlik va idiomatiklik darajalari hamda o'zbek tilidagi qo'llanish chastotasiga e'tibor qaratilgan [1.2026].

Xulosa. Binomial konstruksiya tushunchasining shakllanishi va keyingi talqinlarini tahlil qilish ushbu hodisaning turli davrlarda turli mezonlar asosida izohlanganini ko'rsatadi. Dastlabki tadqiqotlarda komponentlarning grammatik va sintaktik tengligi hamda ularning o'zaro leksik aloqasi asosiy mezon sifatida qaralgan bo'lsa, keyingi ishlarda komponentlar tartibi, uning almashuvchanlik darajasi, formulaviylik va qo'llanish chastotasi kabi jihatlariga ham e'tibor kuchaygan.

Ko'rib chiqilgan yondashuvlar orasida J. Kopaczkyk va H. Sauerning talqini binomial konstruksiyalarni kengroq doirada tavsiflash imkonini berishi bilan ajralib turadi, chunki unda strukturaviy va semantik munosabatlar asosiy mezonlar sifatida saqlanib, komponentlar tartibining qat'iyligi yoki formulaviylik barcha binomiallar uchun majburiy shart sifatida belgilanmaydi. Shu bois mazkur yondashuv binomial konstruksiyalarni keyingi tadqiqotlarda tahlil qilish uchun maqbul nazariy asoslardan biri sifatida qabul qilinishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ermatov, Sh. R. Ingliz va o'zbek tillarida binomial hosilalarning struktur-semantik, funksional-stilistik va pragmatik jihatlar: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Andijon: Andijon davlat chet tillari instituti, 2026.

2. Gustafsson, M. The Frequency and “Frozenness” of Some English Binomials // *Neuphilologische Mitteilungen*. – 1976. – Vol. 77. – P. 623–637.
3. Kopaczyk, J., Sauer, H. Defining and Exploring Binomials // *Binomials in the History of English: Fixed and Flexible* / eds. J. Kopaczyk, H. Sauer. – Cambridge: Cambridge University Press, 2017. – P. 1–24. DOI: 10.1017/9781316339770.001.
4. Leisi, E. Die tautologischen Wortpaare in Caxton’s Eneydos: Zur synchronischen Bedeutungs- und Ursachenforschung. – Cambridge, Mass.: The Murray Printing Company, 1947. – 139 p.
5. Malkiel, Y. Studies in Irreversible Binomials // *Lingua*. – 1959. – Vol. 8. – P. 113–160. DOI: 10.1016/0024-3841(59)90018-X.
6. Mollin, S. The (Ir)reversibility of English Binomials: Corpus, Constraints, Developments. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2014. – 254 p.
7. Siyanova-Chanturia, A., Conklin, K., van Heuven, W. J. B. Seeing a Phrase “Time and Again” Matters: The Role of Phrasal Frequency in the Processing of Multiword Sequences // *Journal of Experimental Psychology: Learning, Memory, and Cognition*. – 2011. – Vol. 37, No. 3. – P. 776–784. DOI: 10.1037/a0022531.